



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 586 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoira Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'stmuhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyeovich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida)	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ilhom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida)	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlarini (Learning outcomes) asosida	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi	137
<i>Yagafarova Naziliya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdorovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	190
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990-yillar)	195
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalari	199
<i>Qo'ziyeva Shahnoza Muhammadsoli qizi</i>	

O'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda mumtoz musiqaning o'rni va ahamiyati	202
Baymanova Feruza Abbralovna	
Ommaviy jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik asoslari	207
Xayitova Ulfatoy Tursunovna	
Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	211
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Muhandislik ta'limida Bernulli va Puasson taqsimotlarini texnologik jarayonlar misolida o'qitish metodikasi... 216	
Qo'ziboyeva Nozima Yoqubjon qizi, Maxmanazarov Sardor Toirjon o'g'li, Saydullayev Asadbek Xayrullo o'g'li	
Психолого-педагогические основы обучения теме “производная” в курсе алгебры и начал анализа президентской школы	225
Шахноза Холмуродова Зоир кизи	
O'qish savodxonligi darslarida Bloom taksonomiyasi va 4K kompetensiyalarining integrativ modeli	234
Farsaxonova Mastura Jalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari va monitoring tizimini takomillashtirish: indikatorlar asosidagi boshqaruv modeli	241
Jo'rayeva Dilrabo Kamoliddin qizi	
Maxsus mashqlar yordamida start tezligini oshirish metodikasi	244
Sitora Elova Axmatqulovna, Panjiyeva Gulzoda Eshdaviat qizi	
Amudaryo foreli (<i>Salmo trutta oxianus</i>) O'zbekiston huddudida tarqalishi va ekologiya ta'siri.....	248
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Xolmo'minova Sevinch Sirojiddinova, Qurbonazarova Marjona Zokirovna	
Suv va quruqlik muhitiga moslashgan amfibiyalarda adaptatsiya xususiyati	251
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Axmatmatova Feruza Shamsiddin qizi, Qo'ldoshova Ruxshona Navroz qizi	
O'zbekistonda tarqalgan kaptarsimonlar xilma-xilligi, ularni tarqalishi, biologik xususiyatlari va amaliy ahamiyati	255
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Xolmo'minova Jasmina Baxtiyor qizi, Saidova Dilnoza Rustamovna	
Surxondaryo viloyatidagi qo'lqanotlilar turlarining morfologik tasnifi va hududiy farqlari.....	259
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Yarashova Sarvara Islomovna, Bahromova Shahzoda Abduqodirovna	
Игровые технологии как средство активизации коммуникативной деятельности учащихся на занятиях по русскому языку.....	267
Халикова Гульбахор Исановна	
Yoshlarni pedagogik kasbga yo'naltirish ishlarini o'rganishning konseptual va metodologik asoslari	270
Matkarimova Muxabbat Abuovna	
O'qish savodxonligini baholovchi topshiriqlar turlari	277
Rasulova Mushtariybonu	
Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlaridagi bolalarda tashqi nafas olish tizimi xususiyatlari	281
Orazbaeva Navbaxor Mratbaevna	
“Kompyuter tarmoqlari” fanini o'qitishda dasturiy-didaktik vositalardan foydalanish	285
Muqimov Shahzodbek Ixtiyor o'g'li	
Yangi O'zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	288
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, Safarova Sevara Saloxiddinovna	
Raqamli ta'lim strategiyalaridan foydalanib o'qish samaradorligini oshirish	294
Narzullayeva Gulzira Xayrullo qizi, Abdusottarova Farog'at Olimjon qizi	
Oliy ta'limda “Zoologiya” kursini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (“umurtqali hayvonlar” misolida).....	299
Xonnazarova Mamlakat To'liqinova	
Oliy ta'lim muassasalarida ommaviy sportni rivojlantirish strategiyalari	303
Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li	
Accommodating a Teenage English Learner With Tourette-Related Stammering in Uzbekistan State Multilevel Test Preparation: A Single-Case Study.....	307
Yulduz Sultanova	
Yengil atletikada to'siqlar osha yugurish texnikasini takomillashtirish va o'rgatish uslubi.....	313
Chariyev Ulug'bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich	



The Interaction of Language and Culture in Intercultural Conflict Communication	317
Gulnoza Khushnazarova	
O'smir shaxsida o'zini o'zi tushunish psixologik muammo sifatida.....	321
Mahmudov Abdurasul	
O'quvchilar nutqida milliy-madaniy leksik birliklarni qo'llashga o'rgatishda semantikashtirish	325
Tursunova Javhar Bakir qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda matematik madaniyatni shakllantirish: Qori Niyoziy merosi asosida	329
Axmedova Nargiza Toychibekovna	
A2 darajadagi o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda adaptiv yondashuvning roli	333
Nezametov Zuxra Axmadovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kasbga ijodiy munosabatni tarbiyalashning nazariy asoslari.....	336
Axmatov Ibrohimjon Furqat o'g'li	
Voyaga yetmaganlar profilaktikasida maktab, oila va mahalla hamkorligining zamonaviy holati va diagnostikasi	340
Japparbergenova Indira Bayramovna	
Yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishni pedagogik tizimini takomillashtirish	344
Amankosova Dinara Gabitovna	
Innovatsion usullar vositasida maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirish	348
Mamatova Aziza Bo'riboevna	
Dzyudoning olimpiya o'yinlaridagi o'rni va ahamiyati	353
Jaxongir O'razbayev Temur o'g'li	
Umumta'lim maktab o'quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga integratsiyalashgan harbiy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari.....	356
A'zamov Inom Salimjonovich	
The Role of Digital Platforms in Developing Students' Independent Learning Competency	360
Jo'rayeva Zamira Ishmuminovna, Uraqova Shaxlo Turdiyevna	
Shaxsiy ta'lim trayektoriyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	365
Toshpo'latov Olim Panjiyevich	
"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat markazlarining ta'lim jarayonlarini tashkil etish	370
Bektemirova Asilabonu Akmal qizi	
Kreativ ta'lim texnologiyalari asosida talabalarda innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	374
Sariboyev Nurali Abdunazarovich	
Bolalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va yosh xususiyatlari	378
Erkinboyev Muhammadqodir Nodirbek o'g'li	
Tasviriy san'at darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish	383
Xushvaqtov Abror Doniyor o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida zamonaviy o'qitish metodlari va interaktiv texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	387
Murodova Dilafruz Matmurod qizi, Sattarova Bibijon Muzaffar qizi, Bekmurotova Muhayyo Uralbayevna	
Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish borasidagi milliy va xorijiy tajribalar	391
Aralova Maxsuma Abdurahmonovna	
Yuqori sinf o'quvchilariga chet til o'qitish va o'rgatishda motivatsiyaning o'rni xususida	396
Atadjanova Shaxnoz Abbasovna, Ismoilova Feruza Salimjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion metodlar	400
Axmedova Fayziniso Otabek qizi	
Bo'lajak pedagoglarning uzluksiz amaliy faoliyatida professional salohiyatini rivojlantirish yo'llari	403
Habibullayeva Muxlisaxon Yorqinjon qizi	

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining PR kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....	406
J. B. Jumabayev	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	412
Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna	
Biologiya ta'lim jarayonida ilg'or hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash.....	416
Mo'minov Dilshod Yaxshiboy o'g'li	
Oliy ta'limda masofaviy ta'limning pedagogik-psixologik xususiyatlari	420
Mutalibova Muqaddasxon Abdunabi qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli platformalar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish	423
Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Saminjonova Sevaraxon Axmadjon qizi, Abdihakimova Muqaddas Fahridinova, Matsapayeva Nigora Satbay qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining etnopedagogik kompetentligini shakllantirishda milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atining didaktik imkoniyatlari	428
Pardayeva Gulchexra Safarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari	432
Qipchaqova Sevinchxon Farxodjon qizi	
Maktabgacha ta'lim boshqaruvida ERP tizimlarini integratsiyalashning proaktiv modeli.....	436
Raxmatillayev Oyatillo Zikrillayevich	
Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish va loyihalashtirish	439
Sadikova Shoista Akbarovna, Yangiboyeva Salomat Samandarovna, Yangiboyeva Sevinch Samandarovna	
Milliy hunarmandchilik buyumlarini yasash orqali o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish	442
Xayitov Jonibek Xolboboyevich, Nabijonova Nilufar Nabijon qizi	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	446
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Сравнительно-типологический анализ юмора и гуманизма в творчестве Гафура Гуляма и Марка Твена.....	451
Абдумунинова Махлиё	
Особенности фонетико-фонематической речи (качественные и количественные) у младших школьников с речевыми расстройствами	453
Заирова Н. Б.	
Informatika ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari	459
Toshmurodova Gulsevar Bekmurod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini oshirishda innovatsion hamkorlik modelining ahamiyati	464
Jo'rayeva Mohigul Avazbek qizi	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi	468
Nazirova Guzal Malikovna	
Oilada bolani tarbiyalashning innovatsion yondashuvlari va ularning samaradorligi.....	474
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuvni ta'minlashda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati...	478
Valijonova Bibirobiyaxon Numonjon qizi	
Raqamlashtirish muhitida o'smirlarning o'zini o'zi anglashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	482
Ortiqova Malika Odiljon qizi, Xolbekova Dinora Faxriddin qizi	
Boshlang'ich sinf matematika ta'limida innovatsion yondashuvlar asosida fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish.....	486
Ermamatova Maftuna Ermamatovna, Shamsiyeva Mohinur Kaxramonovna	
"Lifelong learning" konsepsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari	490
Hakimova Nargiza Supxonovna	
Barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligining tuzilmasi: komponentlar, mezonlar va indikatorlar.....	495
Abduraxmanov Ravshan	



Generativ sun'iy intellekt vositalarining oliy ta'lim talabalarining tanqidiy tafakkuriga ta'siri	500
Ikromov Oybek Ibrogimovich	
Efferent afaziya nutq nuqsoni bo'lgan bemorlar bilan olib boriladigan logopedik rehabilitatsiya ishlar tizimi ..	505
Turdaliyeva Shahlo Husnitdinovna	
Autizm sindromli bolalar bilan ishlashda pedagog va oila hamkorligini ta'minlash mexanizmlari	510
Babayeva Azizabonu Hamidjon qizi	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy yondashuvlari	515
Muhammadjonova Dilafruz Farhodjon qizi	
Ijtimoiylashuvning pedagogik kategoriya sifatida rivojlanishining mazmuni va dinamikasi	519
Madayeva Muqaddas Baxtiyor qizi, Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Globallashuv sharoitida talaba-yoshlarning intellektual migratsiyadagi o'rni.....	526
Eshonjonov Bobir Zafarjonovich	
O'smir qizlarda qad-qomat shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar	530
Uraimov Sanjar Ro'zmatovich, Abdullayeva Maxbuba	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda matn bilan ishlashning didaktik imkoniyatlari	534
Qayumova Shoxsanam To'liqin qizi	
Harbiy xizmatchilarni fuqarolik jamiyatiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiya qilish jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishning pedagogik-psixologik mexanizmlari va determinantlari	538
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli muhitda kechiktirish (prokrastinatsiya) odatlari va ularning shaxsiy moliyaviy qarorlar sifatiga ta'siri.....	544
Sultanova Saida Muhiddin qizi, Nematova Mahliyo Solijon qizi	
Yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari.....	548
Sultanova Saida Muhiddin qizi, Musajonov Ulug'bek Ro'ziboy o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mediaresurslardan foydalanish orqali o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirish.....	551
Bozorboyeva Muhabbat Tohirjon qizi	
Adabiyot darslarida loyiha asosida ta'lim texnologiyalarini qo'llashning didaktik va metodik asoslari (5-sinf misolida)	556
Azimjonova Shahnoza Dilshodbek qizi	
4K modelini rivojlantirishda "Teskari sinf" (Flipped Classroom) texnologiyasining o'rni va ahamiyati	562
Doniyorova Dildora Nuritdin qizi	
4S festivali orqali Prezident maktablari pedagog va hodimlarida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish	566
Ibragimov Shuhratbek	
Ergashgan qo'shma gapli maqollarning komponental xususiyati	571
Xoliqova Nasiba Anvar qizi	
Как через счёт и движение формировать здоровье с точки зрения педагогики восточного возрождения	574
Алиходжаева Р., Калауова М.	
Kurashchilarda musobaqa davrida stressga chidamlilikni shakllantirish	578
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich, Komilov Aziz Xoshimovich	
Значение педагогической культуры в решении проблем подготовки преподавателей русского языка в высшем образовании	581
Худайбердиева Дильфуза Мухтаровна	

ADABIYOT DARSLARIDA LOYIHA ASOSIDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING DIDAKTIK VA METODIK ASOSLARI (5-SINF MISOLIDA)

Azimjonova Shahnoza Dilshodbek qizi

Andijon shahridagi Prezident maktabining
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda 5-sinf adabiyot fanida loyihaga asoslangan ta'lim (LAT) texnologiyalarini qo'llashning didaktik va metodik asoslari o'rganildi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni adabiyot darslarida samarali qo'llash hamda o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shu bilan birga, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida ijodiy yondashuvni namoyon etishi, kichik hajmdagi loyihalar yaratishi va mustaqil izlanish olib borishining didaktik tamoyillari tahlil qilindi. Adabiyot darslarida loyiha asosida ta'lim texnologiyalarini qo'llash, ularning didaktik va metodik asoslarini tadqiq etish hamda amaliyotga joriy etish bugungi ta'lim tizimi uchun muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega ekani dalillandi.

Kalit so'zlar: loyihaga asoslangan ta'lim, metodika, didaktika, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, mustaqillik, yo'naltirilganlik, integrativlik, integratsiya, bilim va ko'nikma.

Abstract: This study examines the didactic and methodological foundations of applying project-based learning technologies in teaching literature in the 5th grade. It considers the effective use of modern pedagogical technologies in literature classes, as well as the development of students' logical and critical thinking skills. At the same time, the didactic principles aimed at encouraging students to demonstrate creative approaches based on acquired knowledge, create small-scale projects, and conduct independent research are analyzed. It is substantiated that the application of project-based learning technologies in literature classes, the study of their didactic and methodological foundations, and their implementation into practice have significant scientific and pedagogical importance for the modern education system.

Key words: project-based learning, methodology, didactics, logical and critical thinking, independence, orientation, integrativity, integration, knowledge and skills.

Аннотация: В данном исследовании изучены дидактические и методические основы применения технологий проектно-ориентированного обучения при преподавании литературы в 5-м классе. Рассмотрены вопросы эффективного использования современных педагогических технологий на уроках литературы, а также развития у учащихся навыков логического и критического мышления. Вместе с тем проанализированы дидактические принципы, направленные на формирование у учащихся творческого подхода на основе усвоенных знаний, создание небольших проектов и проведение самостоятельных исследований. Обосновано, что применение технологий проектно-ориентированного обучения на уроках литературы, исследование их дидактических и методических основ, а также внедрение в практику имеют важное научно-педагогическое значение для современной системы образования.

Ключевые слова: проектно-ориентированное обучение, методика, дидактика, логическое и критическое мышление, самостоятельность, направленность, интегративность, интеграция, знания и навыки.

KIRISH

Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni fanlar kesimida samarali qo'llash hamda o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Globallashuv sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyati, kreativ fikrlashi, muammoli vaziyatlarda mustaqil va asosli qarorlar qabul qila olish qobiliyati, shuningdek, fikrlarida ochiqlik va mustaqillikni namoyon eta olish kompetensiyalarini shakllantirish ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.



Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish akademik va noakademik ta'lim jarayonlarining uzviyligi asosida amalga oshiriladi. Akademik ta'lim o'quvchilarga tizimli bilim berishga yo'naltirilgan bo'lib, unda fanlar mazmunining keng qamrovi va ularning real hayot bilan integratsiyasi muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, adabiyot fanini o'qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi.


Ayniqsa, 5-sinf bosqichida adabiyot fani o'quvchilar uchun yangi mazmun kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida "O'qish savodxonligi" fanini o'zlashtirgan o'quvchilar o'rta bo'g'in ta'limiga o'tish jarayonida "Adabiyot" darsligi bilan tanishib, adabiy bilimlarni tizimli ravishda egallashni boshlaydilar. Ushbu bosqichda o'quvchilarda adabiy asarlarni idrok etish, tahlil qilish, baholash hamda o'z fikrini asosli ifodalash ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida ijodiy yondashuvni namoyon etishi, kichik hajmdagi loyihalar yaratishi va mustaqil izlanish olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yuzaga keladi. Shu bois, adabiyot darslarida loyiha asosida ta'lim (LAT) texnologiyalarini qo'llash, ularning didaktik va metodik asoslarini tadqiq etish hamda amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mualliflar jamoasi tomonidan 5-sinf "Adabiyot" darsligi o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, idrok etish darajasi hamda bilish faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanish qonuniyatlarini inobatga olgan holda metodik jihatdan puxta ishlab chiqilgan. Mazkur darslik tarkibidagi badiiy asarlar – shoir va yozuvchilar ijodi namunalari, xalq og'zaki ijodiga mansub ertaklar, hikmatli so'zlar hamda hadislar – o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, ularning ma'naviy-axloqiy qarashlarini boyitish, borliq va inson mohiyatini anglashga oid tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu materiallar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosalash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, darslikdagi adabiy matnlar loyihaga asoslangan ta'lim (LAT) texnologiyalarini qo'llash uchun qulay didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Xususan, mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish, muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalashga xizmat qiladi.

Loyihaga asoslangan ta'lim Amerika ta'lim tizimida uzoq yillik an'ana hisoblanadi. Buck Institute for Education ma'lumotlariga ko'ra, loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) aynan shu an'analarga borib taqaladi. Tadqiqotlarda LAT uchun asos sifatida "Oltin standartlar" tamoyiliga tayaniladi. Ta'lim tadqiqotlari markazi ilmiy izlanishlarida LAT o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, bilish va tushunish, shuningdek, bilimlarni muvaffaqiyatli qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishning tayanch omili sifatida baholanadi hamda loyihaga asoslangan o'qitishning yetti "Oltin standart" amaliyoti joriy etiladi.



1-rasm: Loyihaga asoslangan ta'limning "Oltin standart" amaliyotlari va ularning didaktik tarkibiy qismlari

Adabiyot darslarida LATning didaktik asoslari.5-sinf adabiyot darslarida LATning didaktik asoslari zamonaviy pedagogika va psixologiya yutuqlariga tayanadi. Ushbu yondashuv:

- asarlar muhokamasi, savol-javob, munozara, bilish va tushunishga oid topshiriqlar ustida ishlashda o'quvchi shaxsini markazga qo'yadi;
- chorak yakunida yoki nazorat ishlari jarayonida ijodiy yondashuvni talab etadi;
- hadislar, hikmatlar, masallar sharhlari hamda mumtoz adabiyot namunalarini chuqur va izchil o'rganishni ta'minlaydi;
- adabiy asarlar mutolaasidan xulosalar chiqarishga, adabiy bilimlarni tayyor holda emas, balki izlanish orqali egallashga yo'naltiriladi;
- kollaborativ (jamoaviy) ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi;
- networking, ya'ni o'quvchilarni tizimli ravishda bir-birining loyihalariga jalb etish muhitini yaratadi.

Xususan, darslikdagi quyidagi mavzular yuzasidan loyihaga asoslangan ta'limni dars jarayonlarida qo'llash maqsadga muvofiqdir:

1. Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "Miltiraydi mitti yulduz", "Burgut", "Tilla baliqcha" she'rlari tahlili.
2. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi matni va g'oyasi ustida ishlash.
3. Imom al-Buxoriy hayoti va ijodi.
4. Hadislar.
5. Alisher Navoiyning "Sher va durroj", "Hotami Toy", "Qanoatli va tamagir" hikoyatlari ("Hayrat ul-abror" dostonidan).
6. Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylari.
7. Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasi.
8. Abdusaid Ko'chimovning "Boychechak", "Hovlidagi maydoncha" hikoyalari tahlili.
9. Matnazar Abdulhakimning "Darsdan so'ng..." she'ri.
10. Sharq hikoyat va rivoyatlari.
11. Hamza Imonberdiyevning "Ohu", "Turnalar", "G'anicha" she'rlari.
12. Isajon Sultonning "Otamga nimadir bo'ldi..." asari matni ustida ishlash.
13. Mirtemirning "Bulut", "Shudring", "Baliq ovi", "Qishlog'im" she'rlari.
14. Erkin Vohidovning "Tandir haqida ertak", "Matmusaning tandiri", "Tandir kiygan Matmusa" hajviy she'rlari.
15. Gianni Rodarining "Hurishni bilmaydigan kuchukcha" ertagi, adabiy ertak haqida ma'lumot, "Burchaklari yo'q shahar" ertagi hamda "O'zimiz ertak to'qiyimiz!" mavzusi.
16. Ezop, Ivan Krilov, Muxtor Xudoyqulov masallaridan namunalar.
17. Masallar.
18. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha" ("Sariq devni minib" romanidan parcha) asari.
19. Rudyard Kiplingning "Maugli" asaridan parcha bilan tanishish.
20. Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'ri muhokamasi.

Yuqoridagi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mo'ljallangan 5-sinf "Adabiyot" darsligida berilgan bir qator mavzular LATni qo'llash uchun qulay didaktik asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Abdulla Oripov she'rlarini o'rganishda o'quvchilarning Vatanga muhabbat, milliy g'urur va estetik did kabi tushunchalarni anglashiga qaratilgan ijodiy loyihalarni tashkil etish mumkin. Bunday loyihalar orqali o'quvchilar she'riy matnni nafaqat tahlil qiladi, balki uni vizual yoki sahnaviy shakllarda ifodalash orqali chuqurroq o'zlashtiradi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblangan "Uch og'a-ini botirlar" ertagini o'rganishda rolli o'yinlar, sahnalashtirish va muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan loyihalar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'quvchilar ertak g'oyasini amaliy faoliyat orqali anglab yetadilar.



TADQIQOT METODOLOGIYASI


Hadis ilmining yirik namoyandasi Imom al-Buxoriy hayoti va ijodini o'rganishda tarixiy-biografik loyihalar samarali bo'lib, ular o'quvchilarda ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday loyihalar orqali o'quvchilar hadislarning mazmun-mohiyatini o'rganish bilan birga, ularning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini ham anglaydilar. O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Alisher Navoiy hikoyatlarini o'rganishda esa axloqiy-etik mazmundagi loyihalarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur loyihalar o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylari asosida tashkil etilgan ijodiy loyihalar o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantiradi va ularni mustaqil ijod qilishga undaydi.

Adabiyot darslarida zamonaviy va jahon adabiyoti namunalarini o'rganishda ham loyihaviy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Masalan, Nodar Dumbadze, Gianni Rodari, Rudyard Kipling kabi yozuvchilarning asarlarini o'rganishda taqqoslash, sahnalashtirish va muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga asoslangan loyihalar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Bundan tashqari, Erkin Vohidov, Hamid Olimjon, Mirtemir kabi ijodkorlarning she'rlari asosida tashkil etilgan loyihalar o'quvchilarda badiiy-estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda o'quvchilar she'r mazmunini turli ijodiy shakllarda ifodalash orqali uni chuqurroq anglaydilar.

LAT quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:


- faollik tamoyili – o'quvchi o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi;
- mustaqillik tamoyili – o'quvchilar mustaqil qaror qabul qiladi;
- amaliy yo'naltirilganlik – bilim real hayot bilan bog'lanadi;
- integrativlik – turli fanlar o'zaro bog'lanadi.

Bu esa o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantiradi.



2-rasm: Loyihaga asoslangan ta'limning o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni

Adabiyot darslarida LAT ning metodik asoslari. Adabiyot fanida loyihaga asoslangan ta'limni qo'llash o'ziga xos metodik yondashuvni talab qiladi. Bunda o'qituvchi:



3-rasm: Loyihaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchining yo'naltiruvchi, rejalashtiruvchi va hamkorlikni tashkil etuvchi pedagogik funksiyalari



Asosiy metodlar:

1. Loyiha metodi – o'quvchilar ma'lum bir mavzu asosida loyiha yaratadi.
2. Muammoli ta'lim – savollar orqali fikrlash rivojlantiriladi.
3. Tadqiqot metodi – asar tahlili chuqurlashtiriladi.
4. Guruhda ishlash – hamkorlik rivojlanadi.

Asar bo'yicha raqamli loyiha	Asar asosida sahnaviy loyiha	Asar asosida ijodiy va tahliliy loyiha
• taqdimot • video loyiha • audio loyiha • dublyaj • asar asosida kichik hajmli multifilm yoki film yaratish • Kompyuter yoki gatjetlar uchun "O'ronli o'yin"lar • asar mobil ilovasi	• kichik sahnaviy asar nomoyishi • Sahnaviy masallar o'qish musobaqalari • xalq qo'shiqlari, milliy o'yinlar, she'riy asarlar asosida sahnaviy loyihalarni jamoaviy tayyorlash	• rasm • poster • loyihaviy maket • hikoya yaratish • she'riy asar yaratish • Qahramonlar xarakteri, badiiy va she'riy asarg'oyasi, obrazlari yuzasidan tahliliy tadqiqot ishi yaratish

4-rasm: Adabiyot darslarida LATni qo'llash shakllari

TAHLIL VA NATIJALAR

5-sinf adabiyot darslarida loyiha asosida ta'limni qo'llashning didaktik samarasi, avvalo, o'quvchi faoliyatining faollashuvida ko'rinadi. An'anaviy darsda o'qituvchi asar mazmunini tushuntiradi, o'quvchi esa tinglaydi va savollarga javob beradi. Loyiha asosidagi darsda esa o'quvchi izlanadi, ma'lumot to'playdi, obrazlarni tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va ijodiy mahsulot yaratadi. Bu jarayon o'quvchini bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyektga aylantiradi. Masalan, 5-sinfda xalq ertaklari, hikoyalar, she'rlar yoki bolalar adabiyoti namunalarini o'rganishda "Mening sevimli qahramonim" loyihasini tashkil etish mumkin. Bunda o'quvchilar tanlangan qahramonning fazilatlarini, nutqi, xatti-harakati, boshqa qahramonlar bilan munosabati va asardagi tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiladi. Yakunda ular poster, taqdimot, kichik sahna ko'rinishi yoki ijodiy matn tayyorlaydi. Bunday loyiha o'quvchilarda obrazli tafakkur, axloqiy baholash va mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"Asar qahramoniga maktub" loyihasi ham adabiyot darslari uchun samarali metodik vosita hisoblanadi. Bu loyihada o'quvchi asar qahramoniga murojaat qiladi, uning xatti-harakatiga baho beradi, maslahat beradi yoki o'z munosabatini bildiradi. Masalan, o'quvchi ijobiy qahramonga minnatdorlik, salbiy qahramonga tanqidiy fikr yoki adashgan qahramonga maslahat yozishi mumkin. Bunday topshiriq o'quvchining yozma nutqi, empatiya, axloqiy tafakkuri va estetik munosabatini rivojlantiradi.

"Kitob reklama loyihasi" esa 5-sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda o'quvchilar o'qigan asari asosida reklama bukleti, videorolik, afisha yoki og'zaki taqdimot tayyorlaydi. Ular asar nima haqida ekani, nima uchun uni o'qish kerakligi, qaysi qahramon ularga yoqqani va asardan qanday xulosa olganini tushuntiradi. Bu loyiha o'quvchilarni kitobni targ'ib qilishga, o'z fikrini auditoriya oldida ravon ifodalashga va ijodiy dizayn bilan ishlashga o'rgatadi.

XULOSA

Adabiyot darslarida loyiha asosida ta'lim texnologiyalarini qo'llash 5-sinf o'quvchilarining badiiy matnni anglash, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, nutqiy kompetensiya va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali metodik vosita hisoblanadi. John Dewey, William H. Kilpatrick, John W. Thomas, John Larmer va John R. Mergendollarning ilmiy qarashlari loyiha asosida ta'limning nazariy-metodologik poydevorini



tashkil etsa, o'zbek adabiyot o'qitish metodikasi namoyandalari badiiy matnni o'quvchi shaxsiyati, ma'naviy tarbiya va ijodiy fikrlash bilan bog'lab o'rganish zarurligini asoslaydi.

5-sinf adabiyot darslarida loyiha asosida ta'limni samarali tashkil etish uchun loyiha mavzusi o'quv dasturi, badiiy asar mazmuni va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. O'qituvchi loyiha bosqichlarini aniq belgilashi, o'quvchilarga mustaqil izlanish imkonini berishi, guruh hamkorlikni tashkil qilishi va baholash mezonlarini oldindan tushuntirishi lozim.

Maqolada keltirilgan tahlillardan kelib chiqib, quyidagi metodik tavsiyalarni berish mumkin:

- 5-sinf adabiyot darslarida har bir yirik mavzu yoki asar yakunida kichik loyiha topshirig'i berilishi maqsadga muvofiq;
- loyiha mavzulari o'quvchilar uchun hayotiy, qiziqarli va ijodiy bo'lishi kerak;
- baholashda faqat yakuniy mahsulot emas, balki izlanish jarayoni, guruhdagi ishtirok, nutqiy faollik va refleksiya ham hisobga olinishi lozim;
- loyiha asosida ta'lim adabiyot darslarini tasviriy san'at, informatika, tarix, musiqa va tarbiya fanlari bilan integratsiyalash imkonini beradi;
- o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda "Kitob reklama loyihasi", "Adib ijodi bo'yicha albom", "Asar qahramoniga maktub" kabi loyihalardan muntazam foydalanish samarali natija beradi.

Umuman olganda, loyiha asosida ta'lim texnologiyasi adabiyot darslarini o'quvchi uchun mazmunli, qiziqarli va hayotiy faoliyatga aylantiradi. Bu texnologiya orqali adabiyot fani o'quvchining nafaqat bilimini, balki shaxsiy pozitsiyasi, ma'naviy qarashlari, estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahsan, M., & Iqbal, S. (2023). The impact of social media on English language use among youth. *Journal of Applied Linguistics and Teaching (JALT)*, 4(2), 120–135. Retrieved from *Journal of Applied Linguistics and Teaching (JALT)* maqolasi
2. Rianto, I. M., & Juliarta, I. P. (2024). The impact of social media on language use among teenagers. *Scientific Forum Journal of Linguistics and Globalization*, 2(3), 45–56. Retrieved from *Scientific Forum Journal of Linguistics and Globalization* maqolasi
3. Oxford University Press. (2023, October). Social media drives language change in children's writing. *OUP News*. Retrieved from *OUP News* maqolasi
4. Crystal, D. (2011). *Internet Linguistics: A Student Guide*. London: Routledge.
5. Tagliamonte, S. A., & Denis, D. (2008). Linguistic ruin? LOL! Instant messaging and teen language. *American Speech*, 83(1), 3–34.
6. Baron, N. S. (2008). *Always On: Language in an Online and Mobile World*. New York: Oxford University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.